



CHET TILLARINI O'RGANISHNI BOSHLASH UCHUN MUHIM
STRATEGIYALAR: INGLIZ TILI

Bahriddinova Shahlo Kamoliddin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilini o'rganishni boshlamoqchi kishilar uchun bo'lib, bu tilni o'rganishda nimadan boshlash kerakligi, uni o'rganish jarayonida qanday muhim jihatlarga e'tibor berib o'rganish kerakligi va bu jarayonning qanday tashkillashtirilishi kerakligi haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek, bu tilni o'rganishda eng ommabop va samarali o'quv dasturlari va qo'llanmalar ham ko'rsatib o'tilgan. Umid qilamizki, mazkur qo'llanma tilning boshlang'ich o'rganuvchilariga o'zlarining ilk qadamlarini tashlashlariga ko'maklashadi.

Kalit so'zlar: *blog yuritish, tinglab tushunish, passive vocabulary, active vocabulary, mobil ilovalar, grammatika, talaffuz.*

Annotation: *This inclusive article outlines the initial process of learning English for beginners who are intending to learn it. Principally, it is aimed to apprise beginners of the process about what to start, what to pay more attention while learning the English language. Furthermore, there are given instructions so that you can organize the process efficiently. It also supplies readers with methodical and prominent books as well as guidelines to utilize. We hope that this guidance will be handy for beginners of the language to saunter their first steps.*

Keywords: *blogging, listening, passive vocabulary, active vocabulary, mobile programs, grammar, pronunciation.*

Аннотация: *Эта обучающая статья предназначена для людей, желающих выучить английский язык, и в ней представлена подробная информация об организационном процессе, например, с чего начать процесс изучения этого языка, на какие важные аспекты следует обратить внимание в процессе его изучения. Также показаны наиболее популярные и эффективные образовательные программы и руководства по изучению этого языка. Мы надеемся, что это руководство поможет начинающим изучать язык сделать первые шаги.*

Ключевые слова: *ведение блога, слух, пассив словарь, актив словарь, мобильные приложения, грамматика.*

Hammamizga ma'lumki, bugungi kunda xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini o'rganish juda ommalashib ketmoqda va bu tilni bilish talabi ham kun sayin oshib boryapti. Xo'sh, o'zi nega bu til shunchalik ommabop. Keling, buni birgalikda tahlil qilamiz. Birinchidan, bugungi kun yoshlarining ko'p qismi chet eldagi nufuzli oliy talim dargohlari, jumladan, Oksford, Harvard, Stanford kabi top dunyo tan olgan universitetlarda o'qishni o'zlariga maqsad qilib olishgan va, albatta, buning uchun xorijiy tilni bilish talabi yuzaga chiqadi. Bundan tashqari, bugungi kundagi ko'plab dasturlar, programmalar ko'pchiligi ingliz tilidadir va mana shu dastur va programmalarini tushunish uchun



ham, hech bo'lmaganda, uni boshlang'ich darajada bilish zarurdir. Oddiy qilib aytganda, tilning imkoniyatlari va foydali jihatlari juda ham ko'p. Shuningdek, tillarni o'rganish haqida "Lyudmila Ulitskaya" kitobining muallifi shunday deydi: "Har bir yangi til inson ongi va uning dunyoqarashini kengaytiradi. Bu yana bitta ko'z va yana bitta quloqqa o'xshaydi". Uning mana shu qo'shimcha "quloq" va "ko'z"ga o'xshatilishi bejizga emas. Yuqorida ham ta'kidlab o'tilganidek, uning yana qator afzalliklari bor. Jumladan, til bilan birgalikda o'sha xalqning madaniyatini o'rganish, yangidan yangi xorijiy do'stlar orttirish, yuqori maoshli ishda ishlash va hokazolar. Xullas, tilning shuncha imkoniyatlari va afzalliklari bor ekan, nega siz u tilni o'rganmasligingiz kerak?! Biz ana shu imkoniyatlarga siz ham ega bo'la olishingiz uchun, avvalo, bu tilni ingliz tilini o'rganishni qanday tarzda boshlash va tashkillashtirish kerakligi, qanday o'quv qo'llanmalar buning uchun foydali va samaraliligi haqida ma'lumot beramiz.

Aksariyat hollarda ingliz tilini noldan boshlab o'rganish qiyinlik qilishi mumkin va shuning uchun ham savol tug'iladi: Ingliz tilini o'rganishning eng qulay usuli o'zi qanday? Javob shuki, til o'rganishda har bir kishi o'zi uchun qulay bo'lgan usulni tanlashlari va shu yo'sinda tilni o'rganishlari mumkin. Xususan, til o'rganishda mustaqil, individual o'qituvchi tanlab yoki guruhda boshqa o'rganuvchilar bilan o'rganish mumkin va shulardan bugungi kundagi o'quvchilarning ko'pi guruhda o'rganishni tanlamoqdalar. Mana shu usullardan eng samaralilaridan biri ham shu o'qituvchi bilan guruhda yuzma-yuz holatda o'rganish, negaki yuzma-yuz dars jarayonida savollar so'rash, mashqlarni tushunmagan joylarini tushuntirishni so'rash imkoniyati mavjud bo'ladi, shuningdek, bunda sizga:

-grammatikani sizga tushunarli tarzda o'rgatib, testlar yoki mashqlar bilan tushunganingizni mustahkamlashga ko'maklashadi;

-bu tilda gapirib ketishingizga hissasini qo'shadilar;

-"listening", ya'ni tinglash qobiliyatingizni qanday qilib rivojlantirish kerakligini va qaysi kitoblar bilan shug'ullanish samaraliligini tushuntirishadilar.

Shuni ta'kidlash lozimki, til o'rganishning poydevori bu, albatta, uning grammatikasidir. Agar grammatikani bilmasangiz, gap tuzish qo'lingizdan kelmaydi, shubhasiz. Shuningdek, bu poydevorni barpo etishda ham, metodikali va salohiyatli o'qituvchi asosiy rol egallaydi. Bundan tashqari, qaysi o'quv qo'llanmalardan foydalanishingiz ham muhim hisoblanadi. Quyida ana shu muhim omillarning bir qanchasi sanab o'tilgan.

1. Raymond Murphy tomonidan ishlatilayotgan ingliz tili grammatikasi. Bu eng yaxshi grammatik kitoblardan biridir. M. Hewings tomonidan boshlang'ich (yengil), o'rta (o'rta) va ilgari (rivojlangan) uchta darajalari mavjud. Kitoblarda keltirilgan tilning grammatik nozikliklarini o'rganishga yordam beradi.

2. Yig'ilish. Mualliflar: V. Evans, J. Dooley, M. Osipova. Oltita kitob turkumi ingliz tilida. Har bir dars ba'zi qoidalar uchun jadvallar va tushuntirishlarni beradi. So'ngra materialni qayta ishlash vazifalari. Mashqlar turli xil, qiziqarli va samarali.

3. Bonk. Mualliflar: N.A. Bonk, G.A. Kotiy va N.A. Lukyanova. Ushbu o'quv qo'llanma o'qituvchi rahbarligida ostida ingliz tilini o'rganishga endi kirishgan katta yoshdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, 4 yilga mo'ljallangan o'quv qo'llanmaning 1-qismi hisoblanadi unda til o'rgatishning asosiy maqsadi og'zaki nutq ko'nikmalarini egallashga



qaratilgan chet tili kurslarida, oliy o'quv yurtlari va boshqa ta'lim muassasalarida foydalanish mumkin. Bu qo'llanmaning yana plyus tomonlaridan biri shundaki, mavzular mantiqiy zanjirga amal qilgan holda tuzilgan, ya'ni mavzular bayonida xoh fonetik, xoh grammatik yoki leksik mavzu bo'lsin osonlik darajasi bo'yicha ketma-ket holda hamda saviyali tuzilgandir.

3. IELTS foundation by Sam McCarter, Verity Cole. Nashriyot: Macmillan. Darajalar: A2-C2. IELTS Foundation, ikkinchi nashrning barcha yaxshi xususiyatlarini saqlab qolgan holda yangilangan tarkib bilan ta'minlangan va bunda imtihon natijalarini oshirishga qaratilgan mahorat va qobiliyatlarga alohida e'tibor beradi. Bundan tashqari, bu kursda Macmillan Collocations lug'atidan ham foydalaniladi. Kitob 4 qismdan iborat:

- Reading;
- Listening strategies;
- Writing structures and vocabularies;
- Strategies and grammar for Speaking section.

Amaliy grammatika. E.E. Izraelivich, K.N. Kachalov. Nashr ikki jildidan iborat. Grammatik materiallarning mashq va kalitlari bilan batafsil tanishuvi. Kurs kitobi morfologiya, punktuatsiya va sintaksisning deyarli barcha bo'limlarini qamrab oladi. Material rus tilida taqdim etiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan grammatik kitoblardan tashqari bajarish kerak bo'lgan yana bir nechta ko'rsatmalar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- Inglizcha kitob yoki jurnallar o'qish.

Ingliz tilini o'rganish umuman olganda qiyin emas, agar siz uni to'g'ri o'rganishni bilsangiz. Shuningdek, til o'rganishning oltin qoidalaridan biri bu o'qishdir. Qancha ko'p o'qisangiz, shuncha ko'p og'zaki va yozma nutqingiz rivojlanadi. O'qish jarayonini shakllantirishda ham o'zingiz uchun kundalik rejim qo'ysangiz, maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, har kuni ingliz tilidagi maqolalarni o'qish yoki bo'lmasa internetdagi ingliz tilidagi xorijiy xabarlarini kuzatib borish ham bu tildagi darajangizning oshishiga xizmat qiladi.

- Blog yuritish.

Bugungi kunda, shubhasiz, ijtimoiy tarmoqlarda blog yuritish va unda o'z fikr va mulohazalarini bildirish keng tarqalgan. Mana shunday blog ochib, uni aynan ingliz tilida yuritish ham sizga anchagina foydali bo'ladi. Misol uchun, biz bugun eng ko'p eshitadigan o'quvchilarning muammosi bu o'zlari biladigan so'zlarni qo'llay olmasligidadir. Agar siz biron bir ijtimoiy tarmoqda shaxsiy blogingizni ingliz tilida yuritadigan bo'lsangiz, siz, albatta, bilmaydigan so'zlaringizni bilib olishingiz mumkin, bilganlaringizni esa "passive vocabulary" dan "active vocabulary" ga o'tkazishingiz mumkin bo'ladi. Bunda siz o'zingizning kuzatuvchilaringiz bo'ladi va shu kuzatuvchilaringizga bu tilda noto'g'ri yozmaslik uchun ham yanada yaxshi o'rganib borasiz.

- Ingliz tilidagi musiqalarni tinglash.

Ingliz tilidagi musiqalarni ko'proq tinglang. Buning o'z ahamiyatli tomonlaridan biri ingliz tilidagi talaffuzingizning oshirishidadir. Qanchalik ko'p musiqa tinglasangiz, shunchalik ko'p eshitib tushunish qobiliyatingiz rivojlanib boradi.

- Telefoningiz yoki kompyuter qurilmalaringizga mobil ilovalarni o'rnatish.



Bu ham sizga til jarayonini yanada tezroq, samarali va qulay tarzda o'rganish imkonini beradi. Masalan, Duolingo, Lingbe, BBC learning English, RealLife, IELTS, ELSA Speak va shu kabi yana yuzlab, balki minglab dasturlar mavjud. Bularning muhim jihatlardan biri ularning ko'pi bepul shaklda, shuningdek, bosqichma-bosqich til o'rgatish uchun mo'ljallanganidir.

-Podkast tinglash.

Podkastlar bu ma'lum bir mavzudagi ovozli yoki tasvirli materiallar bo'lib, siz ular orqali til o'rganishingiz mumkin bo'ladi. Podkastlarni tinglashda bizga internetdagi kanal va dasturlar yordamga keladi. Bularidan BBC learning English, Road podcastlar eng mashhurlaridan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biz til o'rganishda qanday boshlash va nimalarga ko'proq ahamiyat qaratish haqida ma'lumotlar keltirib o'tdik, ammo til o'rganishda qo'yiladigan xatolar haqida hali to'xtalmadik. Til o'rganishda qo'yiladigan xatolardan biri bu yakka tarzda o'rganishni boshlash. To'g'ri, bu qaysidir jihatlardan, masalan, moddiy jihatdan qulay bo'lishi mumkin, lekin siz yolg'iz tarzda o'rganishni boshlasangiz, xatolaringizni to'g'irleydigan odam bo'lmaydi. Siz esa buni o'zingiz uchun to'g'ri deb hisoblab, xato o'rganishda davom etaverasiz, shuning uchun ham aytilyaptiki, bu jarayonni malakali o'qituvchi bilan boshlasangiz, maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, xohish va yaxshi kayfiyat ham til o'rganishda muhim omillardandir. Toni Robinsning aytishicha, "Eng yaxshi usul va qoidalar ham muvaffaqiyatning atigi 20 foizini tashkil etadi. Qolgan 80 foizi esa insonning psixologiyasiga bog'liqdir", shuning uchun ham mutaxassislarning fikricha, o'zi boshlagan ishga o'zi qiziqib kirishadigan insonlar o'sha ishni qolganlarga nisbatan yaxshiroq darajada bajaradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1] Artemov V.A. Psixologiya obucheniya inostrannomu yaziku. - M.: "Pedagogika", 1989. - S.103.

[2] Ingliz tili o'quv qo'llanmasi: 2 qismli / N.A. Bonk, G.A. Kotiy, N.A. Lukyanova. - T.: "ART FLEX" nashriyoti, 2019. Q. I - 752 b.

[3] Yoraliev U.Q. Maktabgacha ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va unda interfaol usullardan foydalanishning imkoniyatlari. Zamonaviy ta'lim jurnali. - T., 2014, 9-son. - 27 b.

[4] @prep.uz

[5] uz.delachieve.com